

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK 373.3.091.3:37.037.5

ORCID ID 0009-0007-9590-4000

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna

Urganch innovatsion universiteti

“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi”

kafedrasi o‘qituvchisi

UrDU mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: feruzahonkutlieva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari, amaliy jihatlari va natijalari tadqiq qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularning pedagogik faoliyatga tayyorligini ta’minlashdir. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish jarayonlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik faoliyat, takomillashtirish, pedagogik kompetensiya, bilim, ko‘nikma va malaka, kompetentlik.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы, практические аспекты и результаты совершенствования системы подготовки будущих учителей начальных классов на основе компетентного подхода. Цель исследования – повышение профессиональной подготовки будущих учителей и обеспечение их готовности к педагогической деятельности путем внедрения компетентного подхода в систему образования. В статье рассматриваются процессы совершенствования системы подготовки к педагогической деятельности на основе компетентного подхода.

Ключевые слова: компетентностный подход, педагогическая деятельность, совершенствование, педагогическая компетенция, знания, умения и навыки, компетентность.

IMPROVING THE SYSTEM OF PREPARING FUTURE PRIMARY TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITIES BASED ON A COMPETENT APPROACH

Annotation. This article discusses the theoretical foundations, practical aspects and results of improving the system of training future primary school teachers based on the competency-based approach. The purpose of the study is to improve the professional training of future teachers and ensure their readiness for teaching activities by introducing a competency-based approach into the education system. The article discusses the processes of improving the system of preparation for teaching activities based on the competency-based approach.

Key words: competency-based approach, pedagogical activity, improvement, pedagogical competence, knowledge, abilities and skills, competence.

KIRISH /ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION

O‘zbekiston ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik faoliyatga tayyorlashda yangi yondashuvlar, jumladan, kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik kadrlarni tayyorlashning samaradorligi va sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bolalarning asosiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli, ularning kasbiy tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish zarurati yuzaga keladi. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda qo‘llashga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini yanada samarali qilish imkoniyatini beradi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish – bu zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishidir. O‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion metodlarni qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlarga e’tibor qaratish, baholash tizimini takomillashtirish va professional rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratish orqali o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim ta’minlanadi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD /ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi. O‘quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy

munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim [1]. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta‘lim, umumta‘lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo‘g‘inlaridagi o‘zgarishlarga ta‘siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta‘lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy va ma‘lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O‘qituvchilarning kompetentligini oshirishning o‘quv-metodik ta‘minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo‘naltirilgan fanlarni o‘qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog‘liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg‘ulotlar asosida o‘qitish ta‘limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [2].

D.A.Ivanovning[3] fikricha kompetensiyaga asoslangan yondashuv ommaviy maktab va mehnat bozori ehtiyojlarini muvofiqlashtirishga urinish, ta‘lim natijasiga yo‘naltirilgan yondashuv, natijada esa o‘rganilgan ma‘lumotlar miqdori emasligini ta‘kidlaydi, lekin insonning turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati hisoblanadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv. O.E.Lebedev [4] ta‘rifiga ko‘ra, ta‘lim maqsadlarini belgilash, ta‘lim mazmunini tanlash, ta‘lim jarayonini tashkil etish va ta‘lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillari yig‘indisidir. Kompetensiyaviy yondashuv — bu o‘quvchilarda bilimlarni emas, balki ular tomonidan ishlatiladigan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonidir (1-rasm).



1-rasm. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning umumiy muammolari bilan bir qatorda, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida kasbiy kompetentsiya va malakalarni shakllantirish bilan bog‘liq ko‘proq shaxsiy masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, kasbiy malakasi yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, professional pedagogika muassasalari bitiruvchilari atrofdagi, dunyodagi o‘zgarishlarning sur‘ati va tabiati tufayli katta qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu muammoning samarali yechimi zamonaviy sharoitda kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetentsiyani shakllantirish va rivojlantirishning keng ko‘lamli dasturini tiklaydi. Ushbu tendensiyalar o‘rta kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quv jarayonidagi tizimli o‘zgarishlarga olib keladi, bu ta‘limning maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari, baholanishi va natijalariga ta‘sir qiladi. Ushbu qoidalarga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning maqsadi uning kasbiy mahoratini bilim, kasbiy va hayotiy tajriba, qadriyatlar va tendensiyalardan foydalangan holda kasbiy faoliyatning real sharoitida yuzaga keladigan kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyati va tayyorligini belgilaydigan integral xususiyat sifatida shakllantirishdan iboratdir [5].


Kasbiy kompetensiyalar: Bu o‘qituvchining soha bilan bog‘liq bilimlari va ularni amalda qo‘llay olish qobiliyati. Kasbiy kompetensiyalar o‘qituvchining ilmiy-pedagogik malakasiga asoslanadi va unga dars berishning samarali usullarini tanlash imkonini beradi.

Pedagogik kompetensiyalar: Bu kompetensiyalar o‘qituvchining o‘quvchilarga ta‘lim berishdagi ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi nafaqat bilim berishi, balki o‘quvchilarning psixologik va emotsional holatini tushunishi, ularga mos ta‘lim usullarini qo‘llashi kerak.

Shaxsiy kompetensiyalar: O‘qituvchining shaxsiy rivojlanishi, o‘ziga nisbatan mas‘uliyat, etika, mehnatsevarlik va boshqa shaxsiy fazilatlari ham muhimdir.

Kommunikativ kompetensiyalar: O‘qituvchi o‘zining fikrini aniq va samarali ifoda etish, o‘quvchilar bilan ijobiy munosabat o‘rnatish, ular bilan samarali muloqot qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar alohida e‘tiborga loyiqdir (2-rasm):



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish.

MUHOKAMA /ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION

Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim va tarbiya jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun pedagogik amaliyotlarni yanada kengaytirish lozim. Amaliyotlar o'qituvchining o'zini sinovdan o'tkazish, o'quvchilar bilan ishlashdagi ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchining individual yondashuvni qo'llay olishi, har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib ta'lim berishi muhim. Bunda kompetensiyaviy yondashuvning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan «har bir o'quvchi o'z imkoniyatlariga qarab o'rganishi»

tushunchasi asosida ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlangan o'qituvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatda samarali qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishadi. Bilim va ko'nikmalarning integratsiyasi – o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashni o'rgatsa, pedagogik mahoratning oshishi – o'qituvchilarning didaktik, psixologik va kommunikativ kompetensiyalari rivojlantiradi. Innovatsion usullardan foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan ishlash ko'nikmalari shakllantirib, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishda hamda o'qituvchilarning o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilashga bo'lgan tayyorgarligi oshiradi.

NATIJALAR /РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS

Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimi o'zgarishlarni talab qiladi. Bu tizimda pedagogik kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish, va individual yondashuvga e'tibor qaratish muhim omillardan biridir. Shuningdek, o'quv dasturlari, metodik kurslar va amaliyotlar orqali o'qituvchilarning kasbiy malakalarini doimiy ravishda oshirib borish zarur. Pedagogik faoliyatda o'qituvchilarning ijtimoiy va emotsional ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'zlarining hissiy holatini boshqarish, o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional holatini tahlil qilish, ularga yordam berish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari kerak. Bu kompetensiyalar o'quvchilarning o'zini o'zi ifoda etish, jamiyatga moslashish va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda yordam beradi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish uchun muhim qadamdir. Bu tizim bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik kompetensiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kommunikativ va innovatsion pedagogik yondashuvlar rivojlantirilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchilarni amaliyot orqali tajriba orttirishga, kasbiy malakalarini oshirishga va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuvlar zarur. Bu kabi tizim bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ularning ta'lim berishdagi ijodiy va tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash kabi ko'nikmalarini ham rivojlantirishga imkon yaratadi.

XULOSA/ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish zamonaviy ta'lim talablariga mos keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv orqali o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik faoliyatga tayyorligi sezilarli darajada oshadi. Kelajakda ushbu yondashuvni boshqa ta'lim yo'nalishlariga ham tatbiq etish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation" 2 (2), 45-50

2. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.

3. Иванов Д.А., Митрофанов К.Г., Соколова О.В. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий. Учебно-методическое пособие.- М.: АПКИПРО, 2003. – 101 с.

4. Коган Е.Я. Компетентностный подход и новое качество образования /Современные подходы к компетентностно-ориентированному образованию/ Под ред. А. В. Великановой. Самара: Профи, 2001

5. Сокольников Ю. П. Общая педагогическая теория. Системное понимание педагогической действительности. – М.-Белгород: Изд-во БелГУ, 1997. – 32 с.